

# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## Asosiy kapitalga investitsiyalar 2019-yil yanvar-dekabr

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi:  
**12 232,4 mlrd. so‘m**

O‘sish sur’ati:  
**148,8 %**

### Asosiy kapitalga Investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:  
**1 397,5 mlrd. so‘m**

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:  
**10 834,9 mlrd. so‘m**

Joriy davrda 12 232,4 mlrd so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, ularning 80,9 % jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 19,1 % moliyalashtirildi.

Markazlashgan manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:  
**662,4 mlrd. so‘m**

Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi:  
**134,0 mlrd. so‘m**

O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar:  
**601,1 mlrd. so‘m**

Markazlashmagan manbalari hisobidan:

Aholi mablag‘lari :  
**1 002,0 mlrd. so‘m**

Korxona mablag‘lari:  
**1 338,3 mlrd. so‘m**


Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari:  
**1 538,1 mlrd. so‘m**

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:  
**6 956,5 mlrd. so‘m**

## **Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 10,9 % korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 12,6 %, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 56,9 %, aholi mablag'lari 8,2 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 4,9 %, Respublika byudjeti 5,4 % va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 1,1 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga  
investitsiyalar  
(jami hajmdagi ulushi, % da)**



**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga investitsiyalar**


	Mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	<b>12 232,4</b>	<b>148,8</b>	<b>100,0</b>
Republika byudjeti	662,4	96,6	5,4
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	134,0	96,8	1,1
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	601,1	49,4	4,9
Korxona mablag'lari	1 338,3	76,4	10,9
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1 538,1	64,6	12,6
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	6 956,5	1287,9	56,9
Aholi mablag'lari	1 002,0	90,1	8,2

***Hududlar kesimida  
asosiy kapitalga investitsiyalar***

	Mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, % da	jamiga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo</b>	<b>12 232,4</b>	<b>148,8</b>	<b>100,0</b>
Oltinsoy	259,5	93,0	2,1
Angor	325,9	115,4	2,7
Boysun	4 998,2	821,7	40,9
Denov	598,6	133,1	4,9
Jarqurg‘on	681,1	96,4	5,6
Qiziriq	591,9	133,2	4,8
Qumqurg‘on	319,0	93,6	2,6
Muzrabod	346,2	141,9	2,8
Sariosiyo	877,3	93,5	7,2
Termiz	688,3	122,3	5,6
Uzun	240,4	147,3	2,0
Sherobod	525,2	32,3	4,3
Sho‘rchi	286,7	125,4	2,3
Termis sh.	1 494,1	110,9	12,2

## *Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar*

### **Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish suratlari**




Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Boysun tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 821,7 %, Uzun 147,3 % va Muzrabod tumanlarida 141,9 % ni tashkil etdi.

Sherobod tumanida asosiy kapitalga investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan keskin tushishi - 32,3 %. Bu albatta o'tgan yillarda ushbu hududda yirik investitsiya loyihasi sement zavodi kompleksi qurilishi bo'yicha investitsiyalarning katta bo'lgani bilan izohlanadi.

## *Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar*

**jamiga nisbatan, % da**




Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hududlar kesimida Boysun tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 40,9 % o'zlashtirildi.

Shuningdek Boysun tumanidan keyingi o'rinda Termiz shahri 12,2 % ni tashkil etmoqda.

Sariosiyo va Termiz tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 7,2 va 5,6 % ni tashkil etdi.


Jarqurg'on hamda Denov tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi 5,6 va 4,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, Uzun tumanida bu ko'rsatkich bo'yicha eng kami bo'ldi – 2,0 %.

## **Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha – 7 562,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar – 3 506,1 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga - 1 163,6 mlrd. so'm o'zlashtirildi.


## **Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)**



Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi – 8 431,0 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 68,9 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar – 3474,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 28,4 % ini tashkil etdi. Qolgan 2,7 %, yani - 327,1 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan – 5 023,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 41,1 % o'zlashtirilgan.

Qayta ishslash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish - 396,9 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,2 %);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish - 231,2 mlrd. so'm (1,9 %);

Tashish va saqlashda - 396,0 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 3,2 % o'zlashtirildi.

## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar




mlrd. soʻm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		Toʻgʼridan – toʻgʼri investitsiyalar	Boshqa investitsiya va kafolatmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiya	kredit			investitsiya	Kafolatlan- magan kredit
<b>Surxondaryo</b>	<b>7 557,6</b>	<b>6 206,3</b>	<b>1 351,3</b>	<b>6 165,4</b>	<b>791,1</b>	<b>40,9</b>	<b>750,2</b>
Termiz sh.	537,0	262,0	275,0	221,1	289,5	40,9	248,6
tumanlar:							
Oltinsoy	103,9	80,6	23,3	80,6	1,4	-	1,4
Angor	72,6	47,7	24,9	47,7	17,5	-	17,5
Boysun	4 744,7	4 695,2	49,5	4 695,2	27,5	-	27,5
Denov	161,2	74,1	87,1	74,1	59,3	-	59,3
Jarqurgʼon	336,4	330,9	5,5	330,9	5,1	-	5,1
Qiziriq	97,1	76,2	20,9	76,2	11,6	-	11,6
Qumqurgʼon	83,1	41,8	41,3	41,8	26,8	-	26,8
Muzrabod	184,1	139,7	44,4	139,7	44,1	-	44,1
Sariosyo	531,4	134,1	397,3	134,1	22,0	-	22,0
Termiz	262,7	88,4	174,3	88,4	150,4	-	150,4
Uzun	99,7	88,4	11,3	88,4	11,2	-	11,2
Sherobod	278,1	100,6	177,5	100,6	109,1	-	109,1
Shoʻrchi	65,6	46,6	19,0	46,6	15,6	-	15,6

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Jamiga nisbatan, % da:




Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi tog`-kon sanoati o`zlashtirilib, u 4 950,2 mlrd. so`mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 65,6 % ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi o'rinni qayta ishlash sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo'yicha - 1 111,0 mlrd. so`m yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 14,7 % o`zlashtirildi.

Qishloq xo`jaligi faoliyati bo'yicha - 942,2 mlrd. so`m, tashish va saqlash faoliyati bo'yicha - 56,6 mlrd. so`m xorijiy investitsiya va kreditlar o`zlashtirilgan.

## **Obyektlarni foydalanishga topshirish**




Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiyligi maydoni 1054,8 ming kv.m, bo'lgan 7350 ta turar joy obyekti yangi qurilib, ulardan umumiyligi maydoni 785,4 ming kv.m. bo'lgan 5817 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Sherobod tumanida ishga tushirilgan 108,9 ming kv.m. va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiyligi maydonning 10,3 % ini tashkil etdi. Keyingi o'rinnlarda Sariosiyo tumani va Termiz shahri egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiyligi maydonning 10,0 va 13,0 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Uzun tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 3,5 % ni tashkil etdi.

## **Obyektlarni foydalanishga topshirish**

### **Ishga tushirilgan turar joylar**



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefonи:

**(76) 223-07-15**